



## AYOLLAR BEPUSHTLIGIDA GORMONAL STATUSNING AHAMIYATINI O'RGANISH

Nishanova Yulduz Khatamovna

Irgasheva Marjona Anvarovna

**Annotatsiya:** Ayollarda bepushtlik zamonaviy tibbiyotda dolzarb muammolardan biri bo'lib, u reproduktiv yoshdagi ayollarning salomatligi va oilada farzand ko'rish imkoniyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bepushtlikning kelib chiqishiga gormonal buzilishlar, tuxumdon faoliyatining yetishmovchiligi, bachadon va bachadon naychalari patologiyalari, turli yallig'lanish jarayonlari hamda tashqi muhit omillari sabab bo'lishi mumkin [9]. Shuningdek, noto'g'ri turmush tarzi, stress, infeksiyon kasalliklar va genetik omillar ham ushbu holatning rivojlanishiga ta'sir etadi [5]. Bepushtlikni aniqlashda zamonaviy diagnostika usullari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ultratovush tekshiruvi, gormonal tahlillar, laborator va klinik tekshiruvlar orqali kasallikning aniq sabablarini aniqlash mumkin [2]. Bepushtlikni aniqlashda gormonal muvozanat muhim ahamiyatga ega. Asosiy gormonlar qatoriga follikulani stimulyatsiya qiluvchi gormon (FSG), lyuteinlashtiruvchi gormon (LG), estrogen, progesteron va prolaktin kiradi [4]. Shu bilan birga, qalqonsimon bez gormonlari (T3, T4, TSG) ham reproduktiv tizim faoliyatiga ta'sir qiladi [6]. Ularning darajasi buzilganda ovulyatsiya va homiladorlik jarayoni muammoga duch keladi.

**Kalit so'zlar:** Bepushtlik, gormonal muvozanat, estrogen, progesteron, prolaktin, ovulyatsiya, reproduktiv tizim, FSG, LG

**Ishning maqsadi:** Ayollar bepushtligining gormonal:estrogen, progesteron, prolaktin omillarining rolini o‘rganish.

**Material va metodlar:** Tadqiqot ayollarda bepushtlik va uning gormonal omillari bilan bog‘liqligini o‘rganishga qaratildi. Material sifatida 60 nafar reproduktiv yoshdagi ayollar tanlandi va ularni quyidagi yosh guruhlariga bo‘ldi:18–25 yosh – 28 nafar (46,7%), 26–35 yosh – 22 nafar (36,7%), 36–43 yosh – 10 nafar (16,6%).

Bemorlarning 53 tasida (88,3%) gormonal fon buzilishi aniqlangan: progesteron yetishmovchiligi 22 nafar (41,5%),estrogen yetishmovchiligi 20 nafar (37,7%), prolaktin darajasi oshib ketgan 11 nafar (20,8%). Qolgan bemorlarning 7 nafarida (11,7%) bepushtlik sababi turmush o‘rtog‘ining reproduktiv holati bilan bog‘liq bo‘lib, ularning spermogramma ko‘rsatkichlari pastligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalari:**Bemorlarning yoshini quydagicha jadvalga keltirdik.(1-jadval)

**.Bemorlarning yosh bo‘yicha taqsimlanishi**

**Jadval 1**

Yosh guruhi	Bemorlar soni	Foiz (%)
18-25	28	46,7
26-35	22	36,7

35-43	10	16,6
-------	----	------

Biz ilmiy ish davomida bemorlarni gormonal buzilishi bo'yicha quyidagi guruhga bo'ldik.(2-jadval)


**Gormonal buzilishlar bo'yicha bemorlarning taqsimot**

**Jadval 2**

<b>Gormonal omil</b>	<b>Bemorlar soni</b>	<b>Foiz (100%)</b>
Progestron yetishmovchiligi	22	41,5
Estrogen yetishmovchiligi	20	37,7
Prolaktin oshishi	11	20,8
Jami(gormonal buzilish)	53	88,3
Turmush o'rtog'i sababli yuzaga kelgan bepushtlik	7	11,7



Bemorlarda hayz siklining 22–24 kunlarida progesteron darajasi o‘lchandi. Olingan natijalarga ko‘ra, bemorlarning aksariyatida progesteron miqdori me‘yoriy ko‘rsatkichlardan past ekanligi aniqlandi. Ushbu holat lyutein faza yetishmovchiligi mavjudligini ko‘rsatadi. Olingan 60 nafar bemorning 22 nafarida (41,5%) 2.2-3.0 ng/ml oralig‘ida ekanligi aniqlandi. Bemorlarni hayz siklining 1-2 kunlarida progesteron darajasi o‘lchandi. 60 nafar bemorning 20 nafarida (37,7%) bemorlarda estrogen yetishmovchiligi aniqlandi. Olingan natijalarga ko‘ra .bemorlarda estradiol miqdori o‘rtacha 15-25 pg/ml oralig‘ida bo‘lib, bu me‘yoriy ko‘rsatkichlardan past ekanligi aniqlandi. Bemorlarning hayz siklining 1-2 kunlarida prolaktin darajasi o‘chandi. Olingan 60 nafar bemorning 11 nafarida (20,8%) prolaktin darajasi yuqori ekanligi aniqlandi. Natijalarga ko‘ra , prolaktin miqdori me‘yoriy ko‘rsatkichlardan yuqori bo‘lib, 11 nafar bemorlarda 35-60 ng/mlni tashkil etdi. Bu holat giperprolaktinemiya mavjudligini ko‘rsatadi. Bu bemorlarda bosh miya MRTisi o‘tkazildi





1-Rasm.Bemor M 28-yosh bosh miya MRT si gipofiz adinomasi.

Olingan 60 nafar bemorning 7 nafarida (11,7%) turmush o'rtog'I sababli yuzaga kelgan bepustlik aniqlandi.

**Xulosa.** O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, reproduktiv yoshdagi ayollarda bepustlikning asosiy sabablari gormonal buzilishlar bilan bog'liqligi aniqlandi. Tekshirilgan 60 nafar bemorning 88,3 % da gormonal fon buzilishi kuzatildi. Ular orasida progesteron yetishmovchiligi eng ko'p (41,5 %) uchragan omil bo'lib, bu ovulyatsiya jarayonining buzilishi va lyutein faza yetishmovchiligi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Bemorlarning 37,7 % da estrogen yetishmovchiligi aniqlanib, bu tuxumdonlar faoliyatining susayganidan dalolat beradi. 20,8 % holatlarda esa prolaktin darajasining oshishi (giperprolaktinemiya) kuzatildi, bu esa gipofiz bezidagi o'zgarishlar, jumladan, adenomalar bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Qolgan 11,7 % bemorlarda bepustlik sababi erkak omili (spermogrammasi 15% dan kam) bilan bog'liq bo'lib, spermogramma ko'rsatkichlarining pastligi qayd etildi.

Umuman olganda, bepustlikning kelib chiqishida gormonal muvozanatning buzilishi muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, bepustlikni erta aniqlash va davolashda gormonal tekshiruvlar, zamonaviy diagnostika usullari hamda kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ayupova F.Sh., Axmedova D.I. Akusherlik va ginekologiya. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2019.
2. Allayorov Y.A. Reproktiv salomatlik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2020.
3. Айламазян Э.К. Акушерство и гинекология. – Санкт-Петербург: СпецЛит, 2018.
4. Савельева Г.М. Гинекология. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2019.
5. Berek J.S. Berek & Novak’s Gynecology. – Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins, 2020.